ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi:
milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O'ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 94

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma'no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe'llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O'G'LI
«Devonu lug'ati-t-turk» asaridagi she'riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O'G'LI
Jadid dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR'AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o'zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA'LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

AXLOQIY-HISSIY KONSEPTLAR: SOF HISSIY VA SOF AXLOQIY KONSEPTLARDAN FARQLANISH MEZONLARI

Fayziyeva Aziza Anvarovna,
Buxoro davlat universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Zamonaviy kognitiv tilshunoslikda hissiy konseptlar tadqiqi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylangan. Z.Kövecses hissiy konseptlarning konseptual metafora va metonimiyalar orqali tuzilishini ko'rsatib, ularning katta qismi inson tanasidagi fiziologik jarayonlarga asoslangan universal asosga ega ekanligini ta'kidlaydi[1]. A.Vyerjbitska esa, aksincha, hissiyotlarni ifodalovchi leksemalar tildan tilga to'g'ridan to'g'ri o'tkazib bo'lmaydigan madaniy ssenariylar bilan bog'liqligini, inglizcha hissiyot nomlarini universal tahlil tili sifatida qabul qilish metodologik xato ekanligini yozadi[2].

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida «uyat», «nomus», «hayo» va «andisha» kabi axloqiy-hissiy tushunchalar doirasida qator lingvomadaniy va pragmatik izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, G.N. Xolmurodova «uyat» leksik-semantik maydonining asosiy birliklarini ingliz tilidagi «shame» tushunchasi bilan qiyosiy-etimologik jihatdan tahlil qilib, o'zbek tilidagi «uyat» asosan jamoaviy madaniyat, ingliz tilidagi «shame» esa ko'proq individualizm bilan bog'liqligini asoslab berdi[3]. M. Maxmudova esa «uyat» konseptining o'zbek maqol va iboralaridagi obrazli, tushunchaviy hamda qadriyat bilan bog'liq jihatlarini deontik va emotsional yondashuvlar doirasida tadqiq etdi[4].

Shuningdek, ushbu axloqiy konseptlarning ijtimoiy-pragmatik xususiyatlari ham olimlar diqqat markazida bo'ldi. G. Yo'ldosheva «or-nomus» konseptini nutqiy aktlar nazariyasi, ya'ni lokutsion, illokutsion va perlokutsion aktlar doirasida o'rganib, uning ijtimoiy axloqiy me'yorlarni targ'ib qilishdagi rolini ochib berdi[5]. O. Sirojiddinova o'zbek frazeologik birliklarida «hayo» konseptining lingvomadaniy ifodalanishini tahlil qilib, uni insonning ichki axloqiy nazorati va milliy mentalitetning uzviy belgisi sifatida e'tirof etdi[6].

Biroq, ana shu chuqur o'rganishlarning beqiyos ahamiyatiga qaramay, mazkur leksemalarning sof hissiyot va ijtimoiy-axloqiy me'yor kesishuvida joylashgan «oraliq» freym strukturasi aniq farqlovchi mezonlar, xususan, norma sloti, kuzatuvchi sloti, o'z-o'zini baholash va fiziologik korrelyat asosida hozirga qadar qiyosiy-tipologik modellashtirilmagan. Zamonaviy ilmiy adabiyotda uyat, nomus, hayo va andisha kabi konseptlar odatda alohida tahlil qilinib, ularni yagona freym tizimida o'zaro bog'lab, qiyosiy aspektda modellashga qaratilgan tadqiqotlar hozircha yetarlicha emas.

Biroq ana shu boy an'anada bir kategoriya, hissiyot va axloq kesishuvida joylashgan oraliq konseptlar, tilshunoslik nuqtayi nazaridan yetarlicha chegaralanmagan. O'zbek tilidagi *uyat, nomus, hayo, andisha*, ingliz tilidagi *shame, guilt, remorse* kabi birliklar bir tomondan boshdan kechiriluvchi his sifatida, ikkinchi tomondan ijtimoiy-axloqiy me'yor bilan uzviy bog'liq qadriyat sifatida konseptuallashadi. Mazkur maqolaning maqsadi ana shu axloqiy-hissiy konseptlarni sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlovchi mezonlarni freym slotlari darajasida ishlab chiqish va ularni ingliz hamda o'zbek tillari materialida sinab ko'rishdir.

[1] Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.

[2] Wierzbicka A. Emotions across Languages and Cultures: Diversity and Universals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999.

[3] Xolmurodova G.N. «Uyat» leksik-semantik maydonining asosiy leksik birliklari qiyosiy tahlili: etimologik va semantik asoslar // The Lingua Spectrum. – 2025. – Vol. 3. – B. 214-218.

[4] Makhmudova M. O'zbek frazeologizmlarida «uyat» konseptining ifodalanishi // In Science: Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. – 2024. – № 2(4). – B. 196-201.

[5] Yuldasheva G. «Or-nomus» konsepti orqali tilning ijtimoiy va axloqiy funksiyasini tadqiq etish // O'zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari. – Toshkent, 2025. – № 1/9. – B. 314-316.

[6] Sirojiddinova O. O'zbek frazeologik birliklarida «hayo» konsepti // O'zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari. – Toshkent, 2026. – № 2. – B. 332-333.

Axloqiy hissiyotlar kategoriyasi dastlab psixologiyada asoslangan. J.Haydt axloqiy hissiyotlarni jamiyat yoki boshqa shaxslar manfaati bilan bog'langan hissiyotlar sifatida ta'riflab, ularning ikki belgisini ajratadi: qo'zg'atuvchining shaxsiy manfaatdan xoliligi va ijtimoiy foydali harakatga undovchi tendensiya[1]. J.Tangniy va R.Diring *shame* va *guilt* konseptlarini chuqur qiyoslab, birinchisida baho subyektning yaxlit «men»iga, ikkinchisida muayyan xatti-harakatga qaratilishini ko'rsatgan[2]. J.Treysi va R.Robins ushbu hissiyotlarni o'z-o'zini anglovchi hissiyotlar (self-conscious emotions) sifatida modellashtirib, ular uchun subyektning o'zi haqidagi tasavvurlari va o'z-o'zini baholash jarayoni zarurligini, bunday hissiyotlar ontogenezda kechroq shakllanishini va bazaviy hissiyotlardagi kabi universal mimik ifodaga ega emasligini asoslaydi[3]. J.Tangniy va hammualliflari esa axloqiy hissiyotlarni axloqiy standartlar bilan real xulq o'rtasidagi bog'lovchi mexanizm deb baholaydi[4]. Ushbu psixologik xulosalar tilshunoslik uchun tayyor mezon bera olmaydi, ammo ular lingvistik mezonlar quriladigan konseptual asosni ta'minlaydi: agar axloqiy-hissiy konseptlar psixologik jihatdan alohida sinf bo'lsa, bu o'ziga xoslik tilda – leksik birliklarning freym tuzilishida, birikuvchanligida va frazeologiyasida – iz qoldirishi lozim.

Tadqiqotning lingvistik instrumenti sifatida Ch. Fillmorning freym semantikasi tanlandi. Unga ko'ra, so'z ma'nosi alohida olingan belgilar yig'indisi emas, balki muayyan tajriba sxemasi – freym fonida tushuniladi: bir leksemani anglash uchun butun freymni, undagi ishtirokchilar va slotlarni faollashtirish talab etiladi[5]. Demak, konseptlar turkumini farqlash vazifasini freym slotlari darajasiga ko'chirish mumkin: ikki konsept bir kategoriyaga mansubligi yoki mansub emasligi ularning freymlarida qaysi slotlar majburiy, qaysilari fakultativ ekanligi bilan tekshiriladi. Ushbu yondashuv mavjud adabiyotdagi taassurotga asoslangan farqlashlardan («uyat his-tuyg'u, adolat esa tushuncha») tekshiriluvchi, takrorlanuvchi tahlil protseduralariga o'tish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatli (kvalitativ) xarakterga ega. Material sifatida O'zbek tilining izohli lug'ati[6] va Sh.Rahmatullayevning izohli frazeologik lug'atidagi[7] tegishli lug'aviy maqolalar, ingliz tilining nufuzli izohli lug'atlari hamda badiiy matnlardan olingan illyustrativ misollar xizmat qildi. Qiyos uch turdagi konseptlar o'rtasida o'tkazildi: sof hissiy konseptlar (*qo'rquv / fear, quvonch / joy*), sof axloqiy konseptlar (*adolat / justice, burch / duty*) va farazimizga ko'ra oraliq mavqega ega axloqiy-hissiy konseptlar (*uyat, nomus, hayo, andisha; shame, guilt*). Har bir konsept to'rt mezon bo'yicha tekshirildi.

Birinchi mezon – norma sloti. Axloqiy-hissiy konsept freymida ijtimoiy-axloqiy me'yor majburiy element hisoblanadi: *uyat* holati norma buzilishisiz konseptuallasha olmaydi, shuning uchun tilda u norma mazmunli ifodalar bilan erkin birikadi (*bunday qilish uyat; uyat emasmi?*). Sof hissiy konseptda norma sloti fakultativ: *qo'rquv* uchun xavf stimulining o'zi yetarli, hech qanday me'yor talab etilmaydi. Sof axloqiy konseptda esa norma markaziy o'rin tutadi, biroq u boshdan kechiriluvchi holat slotisiz mavjud: *adolat* his qilinmaydi, balki o'rnatiladi, talab qilinadi, buziladi.

Ikkinchi mezon – kuzatuvchi sloti, ya'ni freymda real yoki tasavvurdagi «ijtimoiy ko'z»ning mavjudligi. O'zbek lingvomadaniyatida bu slot *el nima deydi, odamlar oldida, el-yurt oldida* kabi turg'un ifodalarda yorqin verballashadi va *uyat* freymining yadrosiga kiradi. Inglizcha *shame* freymida ham kuzatuvchi sloti faol bo'lib, u ichki – internallashgan kuzatuvchi ko'rinishida ham to'ldirilishi mumkin. *Guilt* freymida esa bu slot kuchsizlangan: subyekt hech kim bilmagan xatti-harakati uchun ham *guilt* his qilishi tabiiy konseptuallashadi[8]. Ayni shu farq mezonning ichki differensiyalovchi quvvatini ko'rsatadi: u nafaqat kategoriyani tashqi sinflardan ajratadi, balki kategoriya ichidagi tiplarni ham farqlaydi.

Uchinchi mezon – o'z-o'zini baholash sloti. J.Treysi va R.Robins modeliga muvofiq, o'z-o'zini anglovchi hissiyotlar subyektning o'zini yoki o'z xatti-harakatini muayyan standart asosida baholashini taqozo etadi[9]. Tilda bu slot baho semantikali konstruktsiyalarda

[1] Haidt J. The moral emotions // Davidson R.J., Scherer K.R., Goldsmith H.H. (eds.). Handbook of Affective Sciences. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – P. 852–870.

[2] Tangney J.P., Dearing R.L. Shame and Guilt. – New York: Guilford Press, 2002.

[3] Tracy J.L., Robins R.W. Putting the self into self-conscious emotions: A theoretical model // Psychological Inquiry. – 2004. – Vol. 15. – No. 2. – P. 103–125.

[4] Tangney J.P., Stuewig J., Mashek D.J. Moral emotions and moral behavior // Annual Review of Psychology. – 2007. – Vol. 58. – P. 345–372.

[5] Fillmore Ch.J. Frame semantics // The Linguistic Society of Korea (ed.). Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin Publishing Co., 1982. – P. 111–137.

[6] O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildlik / A.Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

[7] O'zbek tili frazeologik lug'ati [Matn] : lug'at / Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet.

[8] Tangney J.P., Dearing R.L. Shame and Guilt. – New York: Guilford Press, 2002.

[9] Tracy J.L., Robins R.W. Putting the self into self-conscious emotions: A theoretical model // Psychological Inquiry. – 2004. – Vol. 15. – No. 2. – P. 103–125.

namoyon bo'ladi: *o'zidan uyaldi, qilgan ishidan or qildi*. Sof hissiy konseptlarda baho yo'nalishi tashqariga qaratilgan (*ilondan qo'rqdi* – baho xavf manbasiga beriladi), sof axloqiy konseptlarda esa baho shaxsdan tashqari obyektlarga – harakat, qaror, institutga – berilishi mumkin (*adolatli hukm, adolatsiz jamiyat*).

To'rtinchi mezon – fiziologik-xulqiy korrelyat va uning tildagi metonimik ifodasi. Z.Kövecses ko'rsatganidek, hissiy konseptlarning til ifodasida fiziologik reaksiyalar metonimiya manbasi bo'lib xizmat qiladi[1]. Axloqiy-hissiy konseptlar uchun bunday korrelyatlar yuz qizarishi, bosh egish, ko'z olib qochishdir; ular tilda *yuzi qizardi, yerga qaradi, boshini egdi* kabi freym ko'rsatkichlarini hosil qiladi, bu esa konseptni atovchi leksema qatnashmagan kontekstlarda ham uni identifikatsiya qilish imkonini beradi. Sof axloqiy konseptlarda bunday korrelyat mavjud emas: *burch* yoki *adolat*ning tana belgisi yo'q. Mezonlar tizimini umumlashtirgan holda quyidagi jadvalda berish mumkin (1-jadval):

Mezon (freym sloti)	Sof hissiy konsept qo'rquv / fear	Sof axloqiy konsept adolat / duty	Axloqiy-hissiy konsept uyat / shame, guilt
Norma sloti (ijtimoiy-axloqiy me'yorning freymda majburiyligi)	– fakultativ: xavf stimulining o'zi yetarli	+ markaziy element	+ majburiy: norma buzilishi sabab slotini to'ldiradi
Kuzatuvchi sloti (real yoki tasavvurdagi «ijtimoiy ko'z»)	–	–	+ / ± uyat, shame tipida kuchli; guilt tipida kuchsiz
O'z-o'zini baholash sloti (subyektning o'zini norma asosida baholashi)	– baho tashqi obyektga – xavfga qaratiladi	– baho harakat, holat yoki institutga beriladi	+ majburiy
Fiziologik-xulqiy korrelyat (tana belgisi va uning til metonimiyasi)	+ titroq, yurak urishi	–	+ yuz qizarishi, bosh egish, ko'z olib qochish
Boshdan kechiriluvchi his sifatida konseptuallashuvi («his qilmoq» bilan birikuvi)	+	–	+

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, axloqiy-hissiy konseptlar har ikki qo'shni sinfning belgilarini o'zida birlashtiradi, ammo ularning hech biriga to'liq singib ketmaydi: ular sof hissiy konseptlardan norma va o'z-o'zini baholash slotlarining majburiyligi bilan, sof axloqiy konseptlardan esa boshdan kechiriluvchi holat va fiziologik korrelyatning mavjudligi bilan farqlanadi. Shu o'rinda mezonlarning chegaralovchi quvvatini inglizcha *embarrassment* misolida tekshirish o'rinli: bu konseptda kuzatuvchi sloti va fiziologik korrelyat faol, ammo norma sloti kuchsiz – noqulay vaziyat axloqiy me'yor buzilishini talab etmaydi. Demak, *embarrassment* kategoriyaning periferiyasida joylashadi, bu esa kategoriya prototipik tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi: *uyat* va *shame* yadroviy, *embarrassment* chekka a'zo sifatida talqin etiladi.

Ishlab chiqilgan mezonlar o'zbek tilidagi axloqiy-hissiy konseptlar guruhining ichki tabaqalanishini ham ochib beradi. To'rt leksema bir freymning to'rt xil profilini beradi: ular norma, kuzatuvchi va o'z-o'zini baholash slotlariga birdek ega, biroq vaqt o'qi va subyekt sloti bo'yicha mehnat taqsimotiga kirishadi (2-jadval):

Leksema	Freymdagi dominant slot	Til ko'rsatkichlari (lug'aviy va frazeologik diagnostika)
uyat	reaktiv: norma buzilgandan keyingi holat; kuzatuvchi sloti faol	*uyatga qolmoq, uyat qilmoq, el oldida uyalmoq; yuzi qizardi, yerga qaradi*
hayo	dispozitsional: shaxs fazilati sifatidagi preventiv to'siq	*hayoli, hayosiz, hayo pardasi; baho sifatlovchi sifatida shaxsga beriladi*
andisha	prospektiv-deliberativ: harakatdan oldin oqibat va boshqalar idrokini o'ylash	*andisha qilmoq, andishali, andishaning oti qo'rqoq emas; aqliy jarayon fe'llari bilan birikadi*
nomus	kollektiv-qadriyat: subyekt sloti oila, urug', jamoaga kengayadi	*nomusi bor, nomusini saqlamoq, nomusga tegmoq; egalik va himoya konstruksiyalari*

[1] Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.

Bunday tabaqalanish ingliz tilida boshqa o'q bo'ylab kechadi: *shame – guilt* juftligi reaktivlik-dispozitsionallik bo'yicha emas, balki baho obyekti (yaxlit «men» yoki muayyan xatti-harakat) va kuzatuvchi slotining faolligi bo'yicha qarama-qarshi qo'yiladi[1]. Ikki til tizimidagi ana shu assimetriya – o'zbek tilida temporal-subyektiv, ingliz tilida baho-obyektiv tabaqalanish – A.Vyerjbitska ogohlantirgan muammoni[2] yaqqol namoyon etadi: *uyat*ni *shame* bilan, *nomus*-ni *honour* bilan oddiy ekvivalent sifatida tenglashtirish konseptlarning freym tuzilishidagi jiddiy farqlarni yashiradi. Bu kuzatish mazkur tadqiqotning istiqbolli davomini belgilaydi: axloqiy-hissiy konseptlarning badiiy tarjimada qayta konseptuallashuvi alohida tadqiq etilishi lozim bo'lgan masaladir.

Xulosa qilib aytganda, axloqiy-hissiy konseptlar sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanuvchi alohida kategoriyani tashkil etadi va bu farq freym slotlari darajasida obyektiv tekshiriluvchi to'rt mezon, ya'ni norma slotining majburiyligi, kuzatuvchi slotining mavjudligi, o'z-o'zini baholash sloti va fiziologik-xulqiy korrelyat orqali aniqlanadi. Mezonlar tizimi, bir tomondan, kategoriyani tashqi sinflardan chegaralaydi, ikkinchi tomondan, uning ichki – prototipik va tillararo nosimmetrik – tuzilishini ochib beradi. O'zbek tilida ushbu kategoriya to'rt leksemali mukammal tabaqalangan tizim sifatida namoyon bo'lishi uning milliy lingvomadaniyatda alohida salmoqqa ega ekanligidan dalolat beradi va keyingi bosqichda har bir konseptning freym-semantik tuzilishini badiiy matn materialida monografik tahlil etishni taqozo qiladi.

Rezyume. Ushbu maqolada axloqiy-hissiy konseptlarning sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari freym semantikasi asosida ishlab chiqilgan. Norma sloti, kuzatuvchi sloti, o'z-o'zini baholash sloti va fiziologik-xulqiy korrelyatdan iborat to'rt mezon ingliz va o'zbek tillari materialida sinab ko'rilib, o'zbek tilidagi *uyat, nomus, hayo, andisha* leksemalarining ichki tabaqalanishi hamda ikki til tizimidagi nosimmetriya ko'rsatilgan.

Resume. This article develops frame-semantic criteria for distinguishing moral-emotional concepts from purely emotional and purely moral concepts. Four criteria – the obligatoriness of the norm slot, the presence of the observer slot, the self-evaluation slot, and the physiological-behavioural correlate – are tested on English and Uzbek material, revealing the internal differentiation of the Uzbek lexemes *uyat, nomus, hayo, andisha* and the asymmetry between the two language systems.

Резюме. В данной статье на основе фреймовой семантики разработаны критерии разграничения морально-эмоциональных концептов от чисто эмоциональных и чисто моральных концептов. Четыре критерия – облигаторность слота нормы, наличие слота наблюдателя, слот самооценки и физиолого-поведенческий коррелят – апробированы на материале английского и узбекского языков; показаны внутренняя дифференциация узбекских лексем *uyat, nomus, hayo, andisha* и асимметрия двух языковых систем.

[1] Tangney J.P., Dearing R.L. Shame and Guilt. – New York: Guilford Press, 2002.

[2] Wierzbicka A. Emotions across Languages and Cultures: Diversity and Universals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999.